

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Farg`ona viloyatining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktabr holatiga 3733,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 67,4 ming kishiga yoki 1,8 foizga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 2108,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,5%), qishloq aholisi soni 1624,7 ming kishini (43,5 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:

2019 yil yanvar- sentabr


Aholi soni **67,4 ming** kishiga ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **63,6 ming** nafarni tashkil etdi.


12,5 ming ta vafot etganlar qayd etildi.

Shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlarida **20,8 ming ta** nikoh va **2,3 ming ta** ajralishlar ro'yxatga olindi.

Farg`ona viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-sentabr oylarida)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 287,5 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,7 %) va Quva tumanida 255,8 ming kishini (6,9 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 92,8 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 77,1 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Bog'dod tumanida 2,1 % ni, Toshloq tumanida 1,9 % ni, Marg'ilon va Quvasoy shahlarida 1,6 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Furgat tumanida 1,5 % ni tashkil etdi.



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi)



Demografik holat



Ma'lumot uchun:

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pul-satsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar- sentabr oylarida 63,6 ming ta bola ug'ilganligi qayd bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,9 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega ortgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Oltiariq tumani (21,0 promilledan 23,4 promillega) va Furgat tumani (21,7 promilledan 24,0 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, deyarli barcha shahar va tumanlarda o'sish kuzatildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (yanvar- sentabr, kishi)

	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	58741	63606	108,2
Farg'ona sh.	3439	3803	110,6
Qo'qon sh.	3615	4020	111,2
Quvasoy sh.	1411	1402	99,4
Marg'ilon sh.	3596	4027	112,0
Oltiariq	3204	3643	113,7
Qo'shtepa	3217	3413	106,0
Bag'dod	3460	3861	111,6
Buvayda	3695	4052	109,7
Beshariq	3440	3630	105,5
Quva	3919	4303	109,8
Uchko'prik	3978	4142	104,1
Rishton	3218	3463	107,6
So'x	1072	1161	108,3
Toshloq	3373	3671	108,8
O'zbekiston	3909	4051	103,6
Farg'ona	3537	3728	105,4
Dang'ara	3000	3219	107,3
Furgat	1858	2083	112,1
Yozyovon	1800	1934	107,4

Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar- sentabr, oylarida 12,5 ming ta o'lim qayd etilgan bo'lib, barcha shahar, tumanlarda 2018 yilning mos davriga nisbatan ko'payish yuz bergan. 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga 4,5 promilleni tashkil etgan .

O'lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi ko'payishi Quvasoy shahri(4,1 promilledan 4,6 promillega), Oltiariq (4,1 promilledan 4,4 promillega), va Quva tumanlarida (4,1 promilledan 4,4 promillega) o'sgan.

Vafot etganlar



Erkaklar: 6,7 ming kishi
Ayollar: 5,8 ming kishi


Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni(yanvar- sentabr, kishi)

	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	12135	12504	103,0
Farg'ona sh.	1139	1172	102,8
Qo'qon sh.	939	977	104,0
Quvasoy sh.	281	318	113,2
Marg'ilon sh.	824	920	111,7
Oltiariq	628	681	108,4
Qo'shtepa	560	620	110,7
Bag'dod	649	663	102,2
Buvayda	596	618	103,7
Beshariq	737	709	96,2
Quva	767	840	109,5
Uchko'prik	655	715	109,2
Rishton	652	609	93,4
So'x	194	194	100,0
Toshloq	622	609	97,9
O'zbekiston	792	775	97,8
Farg'ona	736	697	94,7
Dang'ara	619	648	104,7
Furqat	450	473	105,1
Yozyovon	295	266	90,2

2019 yilning yanvar- sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 63,1 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,8 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,5 foizi o'simtalardan, 3,9 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,1 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,3 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 359 nafarni tashkil etib, ularning 41,8 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 21,7 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 22,8 foizi tug'ma anomaliyalardan, 4,7 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,8 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan va 3,0 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 51,1 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 4,4 ming kishiga (2018 yilning yanvar- sentabr oylarida 46,6 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Nikoh. 2019 yilning yanvar- sentabr oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlari tomonidan 20856 ta nikoh qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,5 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'ati 97,9 foizga kamaygan bo'lib, O'zbekiston (kamayish sur'ati 90,0 foiz) va Beshariq (kamayish sur'ati 91,2 foiz) tumanlarida kamayish holatlari yuz berdi.

Hududlar kesimida nikoh tuzish koeffitsiyenti

(2019 yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)






Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar- sentabr oylarida shahar, tuman hokimlik-larining FHDYO bo'limlari tomonidan 2382 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni bo'yicha 2018 yilning mos davriga nisbatan sur'ati 0,6 foizga o'sgan bo'lib, Farg'ona (114,1 foiz), va Farg'ona (115,2 foiz) tumanlarida o'sish holatlari kuzatilgan.

Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti

(2019 yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni
(2019 yil yanvar-sentabr kishi)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>			<i>Nikohdan ajralishlar</i>		
	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>
Farg'ona viloyati	21310	20856	97,9	2367	2382	100,6
Farg'ona sh.	1445	1520	105,2	290	331	114,1
Qo'qon sh.	1427	1410	98,8	249	266	106,8
Quvasoy sh.	574	517	90,1	82	81	98,8
Marg'ilon sh.	1381	1383	100,1	136	151	111,0
Oltiariq	1277	1192	93,3	112	116	103,6
Qo'shtepa	1091	1058	97,0	98	101	103,1
Bag'dod	1279	1194	93,4	127	127	100
Buvayda	1231	1208	98,1	99	100	101,0
Beshariq	1161	1059	91,2	141	135	95,7
Quva	1431	1365	95,4	145	129	89,0
Uchko'prik	1329	1461	109,9	92	88	95,7
Rishton	1192	1113	93,4	138	132	95,7
So'x	340	311	91,5	29	25	86,2
Toshloq	1091	1087	99,6	85	79	92,9
O'zbekiston	1454	1308	90,0	172	158	91,9
Farg'ona t.	1278	1297	101,5	125	144	115,2
Dang'ara	1008	1073	106,4	105	111	105,7
Furqat	736	732	99,5	84	67	79,8
Yozyovon	585	568	97,1	58	41	70,7



Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda viloyatda doimiy aholi sonining milliy tarkibini bo'yicha ulushi eng yuqori ko'rsatkichi foiz xisobida O'zbek millati 89,5 foiz, Tojik millati 5,9 foiz, Qirg'iz millati 2,0 foiz, Rus millati 1,2 foiz va boshqa millatga mansublar 1,4 foizni tashkil etadi.

Millatlar



Migratsiya. 2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9389 kishini tashkil etdi



2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 10791 kishini tashkil etdi

Migratsiya saldosini minus 1402 kishi bo'lib, 2018 yilning o'tgan shu davrida minus 1197 kishi bo'lgan.



Aholi migratsiyasi (kishida)

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	9609	9389
Ko'chib ketganlar	10806	10791
Migratsiya saldosini	-1197	-1402

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'chib kelganlar soni 220 kishi, ko'chib ketganlar soni esa 15 kishiga kamaygan.

2019 yilning 9 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi Furgat tumani (minus 356 kishi) va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona 1113 kishi) shaharlarida qayd etildi.